

**ABADIY TANQID VA CHO'LPON IJODI****Yursunova Zilola Ilhomjon qizi**

Farg'ona davlat universiteti, O'zbek tili filologiyasi 22.91 guruh 4-kurs talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19487617>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada abadiy tanqid tushunchasining mohiyati, nazariy asoslari va adabiyotshunoslik tizimidagi o'rni keng qamrovda tahlil qilinadi hamda ushbu ilmiy yondashuvning Abdulhamid Cho'lpon ijodiga tatbiqi chuqur asoslab beriladi. Tadqiqot jarayonida abadiy tanqidning asosiy mezonlari estetik mukammallik, g'oyaviy chuqurlik, umuminsoniylik, tarixiylik va zamonaviylik uyg'unligi kabi omillar ilmiy nuqtai nazardan yoritiladi. Shuningdek, Cho'lpon asarlarining badiiy-estetik xususiyatlari, obrazlar tizimi, til va uslub boyligi, poetik tafakkur darajasi hamda unda aks etgan milliy va umuminsoniy qadriyatlar tizimi tahlil qilinadi. Maqolada Cho'lpon ijodiga nisbatan turli tarixiy davrlarda shakllangan tanqidiy qarashlar ham qiyosiy jihatdan ko'rib chiqilib, ayniqsa sovet davri mafkuraviy yondashuvlari va mustaqillik davri xolis ilmiy talqinlari o'rtasidagi farqlar ochib beriladi. Shu orqali adib ijodining haqiqiy mohiyati va uning o'zbek adabiyotidagi tutgan o'rni ilmiy asosda qayta baholanadi. Tadqiqot davomida Cho'lpon ijodining nafaqat milliy, balki umuminsoniy ahamiyatga ega ekanligi, uning asarlarida ilgari surilgan erkinlik, insonparvarlik, milliy o'zlikni anglash, adolat va ma'naviy poklik kabi g'oyalar bugungi kunda ham dolzarb ekanligi asoslab beriladi.

**Kalit so'zlar:** Abadiy tanqid, adabiyotshunoslik, badiiy-estetik tahlil, milliylik, umuminsoniylik, adabiy tanqid, jadid adabiyoti, g'oyaviylik, badiiy mahorat.

**ETERNAL CRITICISM AND THE WORKS OF CHO'LPON**

**Abstract.** This article analyzes the essence of the concept of eternal criticism, its theoretical foundations, and its role in the system of literary studies, and substantiates the application of this scientific approach to the works of Abdulhamid Cho'lpon. In the course of the research, the main criteria of eternal criticism such as aesthetic perfection, ideological depth, universality, and the harmony of historical and contemporary relevance are examined from a scientific perspective. Furthermore, the artistic and aesthetic features of Cho'lpon's works, including the system of images, richness of language and style, level of poetic thinking, as well as the reflection of national and universal values, are analyzed. The article also comparatively examines critical views on Cho'lpon's *meopuecmbo* formed in different historical periods, particularly highlighting the differences between the ideological approaches of the Soviet period and the objective scientific interpretations of the independence period. Through this, the true essence of the writer's *meopuecmbo* and his place in Uzbek literature are reassessed on a scientific basis. The research demonstrates that Cho'lpon's works possess not only national but also universal significance, and that the ideas of freedom, humanism, national identity, justice, and spiritual purity expressed in his works remain relevant today.

**Keywords:** Eternal criticism, literary studies, artistic and aesthetic analysis, nationality, universality, literary criticism, Jadid literature, ideology, artistic mastery.

**Kirish**

O'zbek adabiyotshunosligida tanqid masalasi har doim muhim ilmiy-nazariy muammolardan biri sifatida e'tirof etilib kelinadi. Ayniqsa, badiiy asarlarning estetik qimmatini, g'oyaviy yo'nalishi hamda muallifning ijodiy pozitsiyasini aniqlashda adabiy tanqid alohida ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtai nazardan, abadiy tanqid tushunchasi ya'ni vaqt sinovidan o'tgan, har bir davrda o'z dolzarbligini yo'qotmaydigan tanqidiy qarashlar tizimi bugungi adabiyotshunoslik uchun ham muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. XX asr boshlarida o'zbek adabiyoti taraqqiyotida muhim o'rin tutgan Abdulhamid Cho'lpon ijodi aynan shunday abadiy tanqid mezonlari asosida qayta-qayta tahlil qilinayotgan noyob adabiy meroslardan biridir.

Cho'lpon nafaqat shoir va yozuvchi, balki o'z davrining yetuk publitsisti va tanqidchisi sifatida ham milliy adabiyot rivojiga ulkan hissa qo'shgan. Uning asarlarida inson erkinligi, milliy uyg'onish, ijtimoiy adolat kabi umumbashariy g'oyalar teran ifoda etilgan bo'lib, bu jihatlar ijodkor merosining abadiyligini ta'minlaydi. Cho'lpon ijodiga bo'lgan munosabat tarixiy jarayonlarda turlicha bo'lib, ayrim davrlarda siyosiy mafkura ta'sirida uning asarlari tanqid ostiga olingan bo'lsa, mustaqillik yillarida esa ijodkor merosi qayta tiklanib, xolis ilmiy asosda o'rganila boshlandi. Bu esa abadiy tanqid mezonlarining shakllanishi va rivojida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

### **Dolzarbligi**

Mazkur maqolaning dolzarbligi shundaki, unda abadiy tanqid tushunchasi va uning Abdulhamid Cho'lpon ijodiga tatbiqi ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Shuningdek, Cho'lpon asarlarining badiiy-estetik xususiyatlari, g'oyaviy yo'nalishi hamda ularning zamonaviy adabiyotshunoslikdagi talqini tahlil etiladi.

### **Maqsadi**

Tadqiqotning maqsadi abadiy tanqid mezonlari asosida Cho'lpon ijodini ilmiy jihatdan yoritish, uning asarlaridagi umuminsoniy va milliy qadriyatlarni aniqlashdan iborat. Shu maqsaddan kelib chiqib, quyidagi vazifalar belgilandi:

- abadiy tanqid tushunchasining nazariy asoslarini yoritish;
- Cho'lpon ijodining badiiy va g'oyaviy xususiyatlarini tahlil qilish;
- adib asarlarining zamonaviy talqinini ilmiy asosda ochib berish.

Mazkur ishning ilmiy ahamiyati shundaki, unda abadiy tanqid va Cho'lpon ijodi o'rtasidagi uzviy bog'liqlik ilmiy asosda tahlil qilinadi hamda o'zbek adabiyotshunosligida bu boradagi qarashlar boyitiladi.

### **Asosiy qism**

Abadiy tanqid adabiyotshunoslik fanida muhim nazariy tushunchalardan biri sifatida qaraladi. U badiiy asarlarning vaqt va makon chegaralaridan chiqib, turli tarixiy davrlarda ham o'z ahamiyatini saqlab qolish xususiyatini ifodalaydi. Mazkur tushuncha asarlarni faqat yaratilgan davri bilan bog'lab qo'ymasdan, balki ularni keyingi avlodlar tomonidan qayta talqin qilish va baholash imkonini beradi. Natijada adabiy merosning haqiqiy qadr-qimmatini aniqlanadi.

Abadiy tanqidning asosiy vazifasi badiiy asarlarning estetik mukammalligi, g'oyaviy chuqurligi va umuminsoniy ahamiyatini ochib berishdan iborat bo'lib, aynan shu mezonlar orqali asarning abadiylik darajasi belgilanadi. Bu jarayonda tanqidchi asarni tarixiylik va zamonaviylik uyg'unligida tahlil qilib, uning nafaqat o'tmishdagi, balki hozirgi davr uchun ham ahamiyatini aniqlaydi. Shuningdek, abadiy tanqid muayyan mafkuraviy yoki siyosiy qarashlarga bog'lanmagan holda, xolis va ilmiy yondashuvni talab qiladi. Bu esa badiiy asarni har tomonlama chuqur o'rganish imkonini yaratadi.

Abadiy tanqid adabiy jarayon uzluksizligini ta'minlab, turli davr ijodkorlari o'rtasida ma'naviy-estetik bog'liqlikni yuzaga keltiradi. Shu bilan birga, u adabiyot taraqqiyotining qonuniyatlarini anglashda muhim ilmiy metod sifatida xizmat qiladi. Ayniqsa, klassik va zamonaviy adabiyot o'rtasidagi aloqalarni aniqlashda abadiy tanqidning roli beqiyosdir.

Natijada bu tushuncha adabiyotshunoslikda badiiy merosni baholashning universal vositasiga aylanadi va ilmiy tadqiqotlarda keng qo'llaniladi. Abadiy tanqidning nazariy asoslari badiiy asarlarni baholashda qo'llaniladigan ilmiy mezonlar tizimiga tayanadi. Ular orqali asarning estetik, g'oyaviy va mazmuniy jihatlari kompleks tarzda tahlil qilinadi. Ushbu mezonlar ichida eng muhimlaridan biri estetik mukammallik bo'lib, u asarning badiiy shakli, til boyligi, uslubiy aniqligi va obrazlar tizimining mukammalligini ifodalaydi. Estetik jihatdan mukammal asar o'quvchiga kuchli ta'sir ko'rsatib, uning ongida chuqur iz qoldiradi.

Ikkinchi muhim mezon g'oyaviy chuqurlik hisoblanib, u asarda ilgari surilgan fikr va g'oyalarning ijtimoiy, falsafiy va axloqiy ahamiyatini belgilaydi. Bunday asarlar insoniyat uchun muhim bo'lgan masalalarni yoritib, har qanday davrda o'z dolzarbligini saqlab qoladi. Uchinchi mezon umuminsoniylik bo'lib, u asarning milliy chegaralardan chiqib, keng insoniyat manfaatlariga xizmat qilishini anglatadi. Shu bilan birga, tarixiylik va zamonaviylik uyg'unligi ham muhim o'rin tutadi. Ya'ni, asar o'z davrining mahsuli bo'lishi bilan birga, keyingi avlodlar uchun ham ahamiyatli bo'lishi kerak. Bundan tashqari, badiiy haqiqat va hayotiylik mezonlari ham muhim bo'lib, ular asarda tasvirlangan voqelikning ishonchliligini ta'minlaydi. Abadiy tanqid ana shu nazariy mezonlarga asoslanib, badiiy asarlarni xolis va chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Natijada vaqt sinovidan o'tgan asarlar adabiy meros sifatida saqlanib qoladi va ilmiy tadqiqotlarning muhim obyekti bo'lib xizmat qiladi.

XX asr boshlarida o'zbek adabiy tanqidi jadidchilik harakati ta'sirida shakllanib, yangi ijtimoiy-siyosiy va madaniy sharoitlar asosida rivojlanish bosqichiga ko'tarildi. Bu davrda milliy uyg'unish, ma'rifatparvarlik va erkin fikrlash g'oyalari adabiyot bilan bir qatorda adabiy tanqidning ham asosiy yo'nalishlarini belgilab berdi. Ayniqsa, Abdulhamid Cho'lpon kabi ijodkorlar o'z asarlari va tanqidiy qarashlari orqali adabiyotga yangicha estetik mezonlarni olib kirdilar. Ular badiiy asarlarni baholashda milliylik, erkinlik va insonparvarlik tamoyillariga alohida e'tibor qaratdilar. Bu esa o'zbek adabiy tanqidining yangi bosqichini boshlab berdi.

Mazkur davrda matbuotning rivojlanishi ham muhim rol o'ynab, gazeta va jurnallar orqali adabiy jarayon keng muhokama qilina boshladi. Natijada adabiy tanqid mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida shakllana boshladi.

Cho'lpon ijodi o'zbek adabiyotida inson ruhiyati va ijtimoiy ongini uyg'otishga xizmat qilgan muhim hodisalardan biridir. Shoir asarlarida ichki kechinmalar va jamiyat muammolari o'zaro uyg'un holda aks etadi.

Xususan, uning "Xayol" she'rida insonning ichki dunyosi, orzu va tasavvurlari badiiy ifodasini topadi:

Xayol, xayol... yolg'iz xayol go'zaldir,

Haqiqatning ko'zlaridan qo'rqaman.

Xayoldagi yulduzlarkim, amaldir,

Olovimni alar uchun yoqaman.

Go'zal xayol, kel, boshimda gul o'ynat,

Manim istak-tilagimni erkalat!

Ushbu misralar orqali shoir xayolni go'zallik va taskin manbai sifatida ko'rsatadi. Shu bilan birga, real hayotdagi og'riqli haqiqatlardan qochish istagi ham seziladi.

Bundan tashqari, Cho'lponning "Xalq" she'rida ijtimoiy ruh ustunlik qiladi va unda xalqning kuchi ulug'lanadi:

Xalq dengizdir, xalq to'lqindir, xalq kuchdir,

Xalq isyondir, xalq olovdur, xalq o'chdir...

Xalq qo'zg'alsa kuch yo'qdirkim, to'xtatsin,  
Quvvat yo'qkim, xalq istagin yo'q etsin.  
Xalq isyoni saltanatni yo'q qildi,  
Xalq istadi, toj va taxtlar yiqildi...  
Xalq istagi — ozod bo'lsin bu o'lka,  
Ketsin uning boshidagi ko'lanka.

Mazkur misralarda xalqning qudrati, birdamligi va ozodlikka intilishi kuchli badiiy vositalar orqali ifodalangan.

Umuman olganda, Cho'lpon ijodida lirizm va ijtimoiylik uyg'unlashgan bo'lib, bu uning asarlarini nafaqat badiiy, balki ijtimoiy jihatdan ham ahamiyatli qiladi.

Shu bilan birga, bu davr tanqidchilari adabiyotning ijtimoiy vazifasini ham chuqur anglab, uni jamiyat taraqqiyoti bilan bog'lashga harakat qildilar. Biroq keyinchalik siyosiy mafkura ta'siri kuchayib, adabiy tanqid ma'lum darajada cheklangan bo'lsa-da, XX asr boshlarida shakllangan tanqidiy tafakkur o'zbek adabiyotshunosligining keyingi rivoji uchun mustahkam ilmiy asos bo'lib xizmat qildi. Aynan shu davrda yaratilgan ilmiy qarashlar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan holda tadqiqotlar markazida qolmoqda.

Abdulhamid Cho'lpon ijodi o'zbek adabiyoti tarixida tub burilish yasagan muhim hodisalardan biri sifatida baholanadi. U milliy uyg'onish davri adabiyotining yetakchi vakillaridan biri bo'lib, o'z asarlari orqali o'zbek xalqining ijtimoiy ongini, milliy o'zlikni anglash jarayonini va ma'naviy yuksalishini ifodalab berdi. Uning ijodida yangi badiiy tafakkur, yangicha estetik qarashlar va zamonaviy adabiy shakllar uyg'unlashgan holda namoyon bo'ladi.

Cho'lpon she'riyatida inson ruhiyati, erkinlik g'oyasi, Vatanga muhabbat va milliy g'urur kabi masalalar chuqur badiiy ifoda topgan bo'lib, bu jihatlar uni o'z davrining eng ilg'or ijodkorlaridan biriga aylantirgan. Uning nasriy asarlari, xususan roman va hikoyalari ham o'zbek adabiyotida yangi realizm unsurlarini shakllantirishga xizmat qilgan. Cho'lpon ijodi orqali o'zbek adabiyotida individual qahramon obrazi yanada mukammal tus oldi. Uning til va uslub borasidagi yangiliklari adabiy til taraqqiyotiga katta hissa qo'shdi. Ayniqsa, uning badiiy ifoda vositalaridan foydalanish mahorati keyingi ijodkorlar uchun namuna bo'lib xizmat qildi.

Shuningdek, Cho'lpon ijodi nafaqat o'z davri, balki keyingi adabiy jarayon uchun ham muhim manba hisoblanadi. Uning asarlari bugungi kunda ham o'z dolzarbligini saqlab qolib, keng ilmiy tadqiqotlar obyekti bo'lib kelmoqda. Natijada Cho'lpon o'zbek adabiyoti tarixida abadiy qadriyat yaratgan ulug' adib sifatida e'tirof etiladi. Abdulhamid Cho'lpon ijodida milliylik va umuminsoniylik tamoyillari o'zaro uyg'unlashgan holda namoyon bo'lib, bu uning asarlarini keng qamrovli va abadiy ahamiyatga ega qiladi. Adib o'z asarlarida o'zbek xalqining tarixiy taqdiri, milliy qadriyatlari va ma'naviy merosini chuqur aks ettirgan holda, shu bilan birga butun insoniyat uchun dolzarb bo'lgan g'oyalarni ilgari suradi. Uning ijodida milliy ruh va xalqona ohang ustuvor bo'lib, bu asarlarga o'ziga xos rang-baranglik va samimiylik baxsh etadi.

Ayni paytda, inson erkinligi, adolat, muhabbat va ma'naviy poklik kabi umuminsoniy qadriyatlar ham markaziy o'rinni egallaydi. Cho'lpon milliy obrazlar orqali global muammolarni yoritishga erishib, o'z ijodini keng auditoriya uchun tushunarli va ahamiyatli qiladi. Bu esa uning asarlarining abadiyligini ta'minlovchi asosiy omillardan biridir. Shuningdek, uning asarlarida milliy til va madaniyatga bo'lgan hurmat bilan birga, boshqa xalqlar madaniyatiga ochiqlik ham kuzatiladi. Bu esa adib ijodining universalligini yanada kuchaytiradi.

Natijada Cho'lpon ijodi milliy va umuminsoniy qadriyatlarining uyg'unlashuvi orqali o'zbek adabiyotida alohida o'rin egallaydi va bugungi kunda ham dolzarb ilmiy muammolarni o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Cho'lpon ijodiga nisbatan tarixiy va zamonaviy tanqidiy yondashuvlar turli davrlarda turlicha shakllanib, bu jarayon adib merosining murakkab va ko'p qirrali ekanligini ko'rsatadi.

Uning ijodi dastlabki davrlarda milliy uyg'onish g'oyalari bilan uyg'un holda ijobiy baholangan bo'lsa, keyinchalik siyosiy mafkura ta'siri ostida bir tomonlama va salbiy talqin qilina boshlagan. Bu esa adabiy tanqidning xolislik tamoyillariga zid ravishda shakllanganini ko'rsatadi.

Ayniqsa, sovet davrida Cho'lpon ijodi "millatchilik" va "burjua qarashlari" bilan bog'lab talqin qilingan. Natijada uning asarlari uzoq vaqt davomida ilmiy muomaladan chetda qolgan.

Biroq mustaqillik yillarida adib ijodiga nisbatan munosabat tubdan o'zgarib, uning merosi qayta tiklandi va xolis ilmiy asosda o'rganila boshlandi.

Zamonaviy adabiyotshunoslikda Cho'lpon ijodi yangi metodologiyalar asosida, jumladan, estetik, tarixiy, psixologik va komparativ tahlil usullari orqali o'rganilmoqda. Bu esa uning asarlarini yanada chuqurroq anglash imkonini bermiqda. Natijada Cho'lpon ijodi bugungi kunda nafaqat milliy, balki xalqaro miqyosda ham qiziqish uyg'otayotgan muhim adabiy meros sifatida e'tirof etilmoqda. Abadiy tanqid mezonlari asosida Cho'lpon ijodini tahlil qilish uning asarlarining bugungi kunda ham o'z dolzarbligini saqlab qolayotganini yaqqol namoyon etadi.

Mazkur yondashuv orqali adib ijodidagi estetik mukammallik, g'oyaviy chuqurlik va umuminsoniylik kabi jihatlar chuqur o'rganiladi.

Cho'lpon asarlarida ilgari surilgan erkinlik, adolat, milliy o'zlikni anglash kabi g'oyalar hozirgi davr uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa uning ijodining abadiyligini ta'minlaydi. Abadiy tanqid nuqtai nazaridan qaralganda, Cho'lpon asarlari faqat o'z davrining mahsuli emas, balki har qanday davr o'quvchisi uchun ham dolzarb bo'lgan badiiy meros sifatida baholanadi. Zamonaviy tadqiqotlarda uning asarlari yangi metodologik yondashuvlar asosida tahlil qilinib, ularning mazmun-mohiyati yanada chuqurroq ochib berilmoqda. Shu bilan birga, Cho'lpon ijodi yosh avlod tarbiyasida ham muhim o'rin tutib, ularni milliy qadriyatlar va umuminsoniy g'oyalarga hurmat ruhida tarbiyalashga xizmat qilmoqda. Natijada abadiy tanqid mezonlari asosida Cho'lpon ijodi o'zbek adabiyotining eng yuksak namunalari qatoridan mustahkam o'rin egallab, ilmiy tadqiqotlar markazida qolmoqda.

### **Muhokama**

Mazkur tadqiqot doirasida abadiy tanqid tushunchasi hamda uning Abdulhamid Cho'lpon ijodiga tatbiqu ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilindi va ushbu yondashuvning adabiyotshunoslikdagi ahamiyati asoslab berildi.

Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, abadiy tanqid badiiy asarlarni vaqt va makon chegaralaridan tashqarida baholash imkonini beruvchi muhim metodologik vosita bo'lib, ayniqsa Cho'lpon ijodini o'rganishda ushbu yondashuv samarali natijalar berishi kuzatildi, chunki adib asarlarida ilgari surilgan g'oyalar erkinlik, milliy o'zlikni anglash, ijtimoiy adolat kabi tushunchalar bugungi kunda ham o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda, tadqiqot davomida Cho'lpon ijodiga nisbatan tarixiy davrlarda turlicha tanqidiy yondashuvlar mavjud bo'lganligi aniqlandi, xususan, sovet davrida mafkuraviy bosim ta'sirida uning asarlari bir tomonlama talqin qilingan bo'lsa mustaqillik davrida esa adib merosi qayta baholanib, xolis ilmiy asosda o'rganila boshlandi, bu esa abadiy tanqidning muhim tamoyillaridan biri xolislik va umuminsoniylik mezonlarining ustuvorligini ko'rsatadi.

Cho'lpon asarlarining badiiy-estetik xususiyatlari, obrazlar tizimi, til va uslub boyligi ham ularni abadiy adabiy meros sifatida baholash imkonini beradi, muhokama jarayonida aniqlanishicha, abadiy tanqid faqat nazariy tushuncha emas, balki amaliy jihatdan ham muhim bo'lib, u orqali adabiy merosni zamonaviy talqin qilish va uning jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini aniqlash mumkin, natijada Cho'lpon ijodi abadiy tanqid mezonlariga to'liq javob beruvchi adabiy hodisa sifatida e'tirof etiladi.

### **Natija**

Tadqiqot natijalariga ko'ra, abadiy tanqid adabiyotshunoslikda badiiy asarlarni chuqur va xolis baholashga xizmat qiluvchi muhim ilmiy yondashuv ekanligi aniqlandi, ushbu yondashuv asosida Abdulhamid Cho'lpon ijodi tahlil qilinganda, uning asarlarida ilgari surilgan g'oyalar, badiiy-estetik tamoyillar hamda umuminsoniy qadriyatlar adib merosining abadiylikni ta'minlayotgani isbotlandi, Cho'lpon ijodi nafaqat o'z davri, balki bugungi kun va kelajak avlodlar uchun ham muhim ma'naviy manba bo'lib xizmat qilishi ilmiy asosda yoritildi, shuningdek, tadqiqot davomida adib ijodiga nisbatan tarixiy va zamonaviy yondashuvlar qiyosiy tahlil qilinib, uning merosini xolis baholash zarurligi asoslab berildi, natijada Cho'lpon ijodi abadiy tanqid mezonlari asosida o'zbek adabiyotining eng yuksak namunalaridan biri sifatida e'tirof etilishi mumkinligi xulosa qilindi, umuman olganda, mazkur tadqiqot abadiy tanqid tushunchasini chuqurroq anglash va uni milliy adabiyot namunalariga tatbiq etishda muhim ilmiy ahamiyatga ega bo'lib, kelgusida ushbu yo'nalishda olib boriladigan tadqiqotlar uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

### **Xulosa**

Mazkur tadqiqot natijasida abadiy tanqid tushunchasining adabiyotshunoslikdagi o'rni va ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berildi hamda uning Abdulhamid Cho'lpon ijodiga tatbiqi orqali muhim nazariy va amaliy xulosalarga kelindi. Xususan, abadiy tanqid badiiy asarlarni vaqt sinovidan o'tkazib, ularning estetik mukammalligi, g'oyaviy chuqurligi va umuminsoniy ahamiyatini aniqlashga xizmat qiluvchi universal metod ekanligi aniqlandi. Cho'lpon ijodini mazkur mezonlar asosida tahlil qilish uning asarlarida ilgari surilgan erkinlik, milliy o'zlikni anglash, adolat va insonparvarlik g'oyalari bugungi kunda ham dolzarbligini saqlab qolayotganini ko'rsatdi. Adibning badiiy mahorati, obrazlar tizimi, til va uslub boyligi uning ijodini abadiy adabiy meros darajasiga ko'targan asosiy omillar ekanligi isbotlandi.

Tadqiqot davomida Cho'lpon ijodiga nisbatan tarixiy va zamonaviy tanqidiy yondashuvlar qiyosiy tahlil qilinib, uning merosini xolis va ilmiy asosda o'rganish zarurligi asoslab berildi. Natijada Abdulhamid Cho'lpon ijodi abadiy tanqid mezonlariga to'liq javob beruvchi, o'zbek adabiyotining eng yuksak namunalaridan biri sifatida baholanishi mumkinligi xulosa qilindi.

Umuman olganda, mazkur tadqiqot abadiy tanqid nazariyasini chuqurroq anglash va uni milliy adabiyot namunalariga tatbiq etishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi hamda kelgusidagi ilmiy izlanishlar uchun mustahkam nazariy asos yaratadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Abdulhamid Cho'lpon. Asarlar to'plami. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2016.
2. Ozod Sharafiddinov. Cho'lponni anglash. – Toshkent: Ma'naviyat, 2004.
3. Naim Karimov. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 2010.
4. Ibrohim Haqqulov. Badiiy tafakkur va talqin. – Toshkent: Sharq, 2007.

5. Dilmurod Quronov. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Akademnashr, 2012.
6. Bahodir Karimov. Jadid adabiyoti va milliy uygʻonish. – Toshkent: Fan, 2015.
7. Ozod Sharafiddinov. (2001). Choʻlpon ijodini anglash masalalari. Oʻzbek tili va adabiyoti, 3-son, 12–18-betlar.
8. Naim Karimov. (2005). Jadid adabiyoti va Choʻlpon ijodi. Sharq yulduzi, 5-son, 25–32-betlar.
9. Ibrohim Haqqulov. (2008). Badiiy tafakkur va Choʻlpon sheʼriyati. Oʻzbek tili va adabiyoti, 4-son, 30–36-betlar.
10. Dilmurod Quronov. (2012). Adabiy tanqid va uning zamonaviy talqinlari. Filologiya masalalari, 2-son, 40–47-betlar.
11. Bahodir Karimov. (2015). Milliy uygʻonish davri adabiyoti va tanqid. Ilmiy axborotnoma, 1-son, 15–22-betlar.